

## MASOFADAN TURIB ISHLOVCHI XODIMLARNING MEHNATINI HUQUQIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**O'razaliyeva Rushana Abduvahob qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi.

Telefon: +998918560510.

[Orazaliyevavarushana@mail.ru](mailto:Orazaliyevavarushana@mail.ru)

**Ravshanova Oyshabonu Salom qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

Telefon: +998(94) 251 66 55.

[ravshanova.oysha1@gmail.com](mailto:ravshanova.oysha1@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11274529>

***Annotatsiya.** Ushbu maqola masofadan turib ishlovchi xodimlarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Masofadan turib ishlash, masofadan turib ishlashning o'ziga xos jihatlari, mehnat shartnomasi, ish haqi, elektron pochta.*

## PECULIARITIES OF LEGAL REGULATION OF WORK OF EMPLOYEES WORKING REMOTELY

***Abstract.** This article talks about the specific features of the legal regulation of the work of employees working remotely.*

***Key words:** Remote work, specific aspects of remote work, employment contract, salary, e-mail.*

## ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДА СОТРУДНИКОВ, РАБОТАЮЩИХ УДАЛЕННО

***Аннотация.** В данной статье говорится об особенностях правового регулирования труда сотрудников, работающих удаленно.*

***Ключевые слова:** Удаленная работа, особенности удаленной работы, трудовой договор, заработная плата, электронная почта.*

Mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasini ish beruvchi joylashgan yerdan, tashkilotning alohida tuzilmasidan ish beruvchining bevosita yo bo'lmasa bilvosita nazoratida bo'lgan statsionar ish joyidan, hududdan yo obyektidan tashqarida bajarish hisoblanib, bunda mazkur mehnat vazifasini bajarish va uni bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ish beruvchi hamda xodim o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish uchun axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanib o'z vazifasini bajarish masofadan turib ishlash hisoblanadi.

Quyidagi hollarda masofadan turib ishlash mumkin:

-xodimni ishga qabul qilayotganda;

-odatdagi ish rejimidan masofadan turib ishlash rejimiga o'tkazilganxodim ish jarayonida.

Biron bir ish beruvchida ishlayotgan xodimning avvalgi mehnat vazifasini davom ettirgan holda odatdagi ish rejimidan masofadan turib ishlashga o'tkazilishi mehnat shartlarining o'zgarishi hisoblanadi.

Masofada turib ishlashni xohlovchi xodimlar bilan muddatli yoki nomuayyan muddatga shartnoma tuzish mumkin.

Agarda tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega halokatlar, ishlab chiqarishdagi avariyaalar, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, shu kabi yong'inar, toshqinlar, zilzilalar, epidemiyalar ro'y bergan taqdirda va aholining yoki uning bir qismining hayotiga yo bo'lmasa normal yashash sharoitlariga tahdid soladigan boshqa hollarda ish beruvchining tashabbusi bilan xodimning roziligisiz uning vaqtincha masofadan turib ishlashga o'tkazilishi mumkin.

Masofada turib ishlovchi xodimlarga ham ta'tillar beriladi. Ular to'liqsiz ish vaqtida ham ishlashi mumkin. Xodim ish beruvchi bilan kelisha olsa o'zi uchun doimiy yoki vaqtincha masofadan turib ishlashning aralash rejimi belgilashi mumkin. Elektron hujjatlar almashinuvi orqali masofadan turib ishlash to'g'risidagi mehnat shartnomasiga kiritilgan o'zgarishlarni kelishib olish mumkin.

Masofadan turib ishlovchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 456-moddasida o'rsatilganidek:

-masofadan turib ishlash jadvali — masofadan turib ishlash rejimida xodimga taqdim etiladigan ish kunlarining hamda ish soatlarining soni va davriyligi;

-traflar o'rtasida ishlab chiqarish vazifalari va ularning bajarilishi to'g'risida axborot almashish usullari;

-masofadan turib ishlashning aralash rejimi belgilanganda statsionar ish joyida ishlash va masofadan turib ishlash davrlari, shuningdek ularning navbat bilan almashinishi;

-agar masofadan turib ishlovchi xodim tomonidan mehnat vazifasini amalga oshirishi uchun tegishli asbob-uskunalar va tashkiliy texnika zarur bo'lsa, masofadan turib ishlovchi xodimga asbob-uskunalar va tashkiliy texnika berish tartibi, bundan masofadan turib ishlovchi xodim o'ziga tegishli bo'lgan yoki o'zi ijaraga olgan asbob-uskunalar va tashkiliy texnikadan foydalanishi to'g'risida traflar kelishuvga erishgan hollar mustasno;

-ish beruvchining mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan mehnat vazifasini bajarishi uchun masofadan turib ishlovchi xodimga berilgan asbob-uskunalar va tashkiliy texnikani ta'mirlashni amalga oshirishga doir majburiyatlari;

-xodimni ish beruvchi bilan muntazam ravishda hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan aloqa vositalari bilan, shu jumladan uning Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishini ta'minlash;

-xodimning aybi bilan ish beruvchi tomonidan masofadan turib ishlovchi xodimga topshirilgan uskunalar va tashkiliy texnika buzilganligi tufayli ish beruvchiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash shartlari;

-masofadan turib ishlovchi xodimga foydalanish uchun berilgan uskunalar, tashkiliy texnika, dasturiy-texnik vositalar, aloqa vositalari, axborotni muhofaza qilish vositalarini va boshqa vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi;

-mehnat majburiyatlarini bajarish uchun masofadan turib ishlovchi xodim o'z asbob-uskunalar va tashkiliy texnikasidan foydalangan taqdirda, masofadan turib ishlovchi xodimga xarajatlarning o'rnini qoplash tartibi va shartlari;

-mehnat majburiyatlarini bajarish uchun aloqa vositalaridan foydalanganligi munosabati bilan masofadan turib ishlovchi xodimga xarajatlarning o'rnini qoplash tartibi va shartlari;

-masofadan turib ishlovchi xodim va ish beruvchining elektron hujjatlar almashinuvi orqali hamkorlik qilishi tartibi;

-ishlab chiqarish topshirig'ida shart qilib ko'rsatilgan ishlarni mehnat shartnomasida belgilangan muddatlarda bajarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, masofadan turib ishlovchi xodimning ishlarni o'z vaqtida bajarishiga monelik qilayotgan sababni ko'rsatgan holda ish beruvchini xabardor qilish majburiyati;

-ish beruvchi va masofadan turib ishlovchi xodimning zarur mehnatni muhofaza qilish qoidalariga hamda xavfsizlik shartlariga rioya etish majburiyatlari kiritilishi kerak.

Masofadan turib ishlovchi xodim tomonidan mustaqil ravishda belgilanadigan ish vaqtiga bir hissa miqdorida haq to'lanadi hamda unga nisbatan ishdan tashqari ish, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish, shuningdek tungi vaqtdagi ish uchun mehnatga haq to'lanadi. Masofadan turib ishlovchi xodimning yillik asosiy ta'tili 21 kundan kam bo'lmasligi kerak. Masofadan turib ishlovchi xodimlarning ish haqi, xodim mehnat normalarini va mehnat vazifalarini bajarsa, qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi lozim. Bunday xodimlar bilan ham mehnat shartnomasi mehnat kodeksida ko'rsatilgan.

#### **REFERENCES**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. [www.legalcity.uz](http://www.legalcity.uz)
3. [www.constitution.uz](http://www.constitution.uz).
4. [www.pravacheloveka.uz](http://www.pravacheloveka.uz).
5. [www.norma.uz](http://www.norma.uz).
6. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi.